

INGLIZ VA O'ZBEK MEDIADISKURSIDA OBYEKTIV MODALLIKNING LINGVOPRAGMATIK IFODALANISH VOSITALARI (QIYOSIY TAHLIL)

Nazirqulova Dilrabo Zafariddin qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: Dilrabozaфарovna3@gmail.com

Tel: +998 99 880-98-46

ORCID: 0009-0006-4401-7607

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21453163>

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy mediadiskursda obyektiv modallik kategoriyasining lingvistik ifodalanish vositalarini ingliz va o'zbek tili materiallari asosida qiyosiy-tiplogik tahlil qilihsa bag'ishlangan. Tadqiqotda obyektiv modallik mediadiskursning informative funksiyasini ta'minlashdagi ahamiyati, axborotning obyektiv qabul qilinishidagi roli ilmiy adabiyotlar tahlili asosida asoslanadi. Asosiy e'tibor obyektiv modallikni ifodalashda qo'llaniladigan leksik-grammatik vositalar-modal fe'llar va ularning ekvivalentlari, modal so'zlar va ravishli birikmalar, kishisiz va passiv konstruksiyalar, ko'chirma gaplar va manba ko'rsatkichlari, shuningdek, faktik ma'lumotlar, statistic raqamlar, ekspert fikrlari, terminlar, shaxssiz gaplar va olmoshlardan foydalanish xususiyatiga qaratiladi. Tahlil natijalari ingliz va o'zbek mediadiskursida obyektiv modallikning ifodalanishidagi o'xshashlik va farqlarni ochib beradi, bu farqlarning lingvistik, madaniy va pragmatic omillar bilan bog'liqligi bo'yicha fundamental xulosalar taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: mediadiskurs, obyektiv modallik, lingvopragmatika, qiyosiy tahlil, modal fe'llar, modal so'zlar, passiv konstruksiyalar, ingliz tili, o'zbek tili

LINGUOPRAGMATIC MEANS OF EXPRESSING OBJECTIVE MODALITY IN ENGLISH AND UZBEK MEDIA DISCOURSE (COMPARATIVE ANALYSIS)

Nazirqulova Dilrabo Zafariddin qizi

Independent researcher in Uzbekistan state world languages university

Abstract: *This article presents a comparative-typological analysis of the linguistic means of expressing objective modality in English and Uzbek media discourse. The study substantiates the significance of objective modality in ensuring the informative function of media discourse and its role in the objective perception of information, based on an analysis of scientific literature. Primary attention is given to the lexico-grammatical means used to express objective modality, including modal verbs and their equivalents, modal words and adverbial phrases, impersonal and passive constructions, direct speech and source indicators, as well as the pragmatic features of using factual data, statistical figures, expert opinions, terms, impersonal sentences, and pronouns. The analysis reveals similarities and differences in the manifestation of objective modality in English and Uzbek media discourse, providing fundamental conclusions regarding the linguistic, cultural, and pragmatic factors underlying these variations. The research highlights the practical manifestation of objective modality through the example of analytical articles. This article will be valuable for specialists in journalism, linguistics, and media studies.*

Key words: *media discourse, objective modality, linguopragmatics, comparative analysis, modal verbs, modal words, passive constructions, source indicators, analytical article, English language, Uzbek language*

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА ВЫРАЖЕНИЯ ОБЪЕКТИВНОЙ МОДАЛЬНОСТИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ МЕДИАДИСКУРСЕ (СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ)

Назиркулова Дилрабо Зафариддин кизи

Независимый исследователь Узбекского государственного
университета мировых языков

Аннотация: *Данная статья посвящена сравнительно-типологическому анализу лингвистических средств выражения объективной*

модальности в английском и узбекском медиадискурсе. В исследовании обосновывается значимость категории объективной модальности для обеспечения информативной функции медиадискурса и ее роль в объективном восприятии информации, исходя из анализа научной литературы. Основное внимание уделяется лексико-грамматическим средствам, используемым для выражения объективной модальности, включая модальные глаголы и их эквиваленты, модальные слова и наречные сочетания, безличные и пассивные конструкции, прямую речь и индикаторы источника, а также прагматические особенности использования фактических данных, статистических показателей, экспертных мнений, терминов, безличных предложений и местоимений. Анализ выявляет сходства и различия в проявлении объективной модальности в англо- и узбекскоязычном медиадискурсе, предоставляя фундаментальные выводы относительно лингвистических, культурных и прагматических факторов, лежащих в основе этих вариаций. Исследование освещает практическое проявление объективной модальности на примере аналитических статей. Данная статья будет ценна для специалистов в области журналистики, лингвистики и медиаисследований

Ключевые слова: медиадискурс, объективная модальность, лингвопрагматика, сравнительный анализ, модальные глаголы, модальные слова, пассивные конструкции, индикаторы источника, аналитическая статья, английский язык, узбекский язык

Kirish. Zamonaviy axborot jamiyatida mediadiskurs nafaqat ma'lumot uzatuvchi kanal, balki lingvistik vositalar orqali voqelikni aks ettirish, baholash va shakllantirish jarayonidir. Mediadiskurs tahlilida tilning ekspressiv va semantik-pragmatik vositalari orasida modallik kategoriyasining, xususan, obyektiv modallikning ahamiyati beqiyosdir. Ushbu kategoriya, ayniqsa, siyosiy va axborotga yo'naltirilgan matnlarda kommunikatorning xabar mazmuniga bo'lgan yondashuvi,

voqelikni baholash usuli hamda ma'lumotning ishonchliligi darajasini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Obyektiv modallik matndagi ma'lumotning real borliqqa mos kelish darajasini, uning ishonchlilik darajasini hamda manbaning xabraga nisbatan neytral pozitsiyasini ko'rsatuvchi muhim kategoriya hisoblanadi.

Aynan obyektiv modallik mediadiskursda faktlarga tayanish, xolislikni ta'minlashga intilish, yoki aksincha, ma'lumotni ma'lum bir tarzda taqdim etishda ustuvorlik berish uchun ishlatiladigan vositalarni o'z ichiga oladi.

Ushbu maqola ingliz va o'zbek mediadiskursida obyektiv modallikning ifodalanish xususiyatlarini tizimli va qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi obyektiv modallikning ushbu ikki tildagi mediadiskursda qo'llaniladigan leksik-grammatik va pragmatic vositalarini aniqlash, ularning o'xshashliklari va farqlarini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, obyektivlikni niqoblash strategiyalari va janrga bog'lqi xususiyatlari ham tadqiqot obyektiga kiritiladi. Tadqiqot natijalari mediadiskursda axborotning qanday qilib "obyektiv" tarzda taqdim etilishi, "fakt" va "fikr" o'rtasidagi chegara qanday belgilanadi hamda turli kontekstlarda obyektivlikning oziga xos talqini qanday namoyon bo'lishini ochib beradi.

Adabiyotlar tahlili. Modallik kategoriyasi tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, uzoq yillardan buyon ko'plab olimlar tomonidan o'rganilolib kelinmoqda. Mediadiskursdagi modallik masalalari G'arb va Sharq tilshunosligida, xususan, modallik nazariyasini rivojlantirgan Ch.Balli, J.Lyons, F.R. Palmer, V.V.Vinogradov, N.D.Arutyunova kabi olimlarning ishlarida fundamental asoslarga ega. Obyektiv modallikning mediadiskursdagi ahamiyati D.Shiffrin, T.Van Dijk, P. Fairclough kabi diskurs tahlilchilari tomonidan ham keng yoritilgan bo'lib, ular modallikni matnning informativ va manipulyativ salohiyatini aniqlashdagi muhim omil sifatida qarashadi.

O'zbek tilshunosligida modallik masalalari I.A.Koshonova, N.Mahmudov, B.Mengliyev, Z.Yigitaliyeva, K.Rizqiyeva, J.Yoqubov kabi olimlarning

tadqiqotlarida o'rganilgan. Biroq ingliz va o'zbek mediadiskursida obyektiv modallikning qiyosiy-tipologik tahlili, uning lingvopragmatik ifodalanish vositalarini kompleks o'rganish bo'yicha chuqur ilmiy ishlar nisbatan ozchilikni tashkil etadi. Mavjud tadqiqotlar asosan umumiy modallik masalalariga yoki ma'lum bir til doirasidagi tadqiqotlarga qaratilgan. Ushbu bo'shliqni to'ldirish, obyektiv modallikning o'ziga xos xususiyatlarini, o'xshashliklari va farqlarini aniqlash ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Ayniqsa, obyektiv modallikning zamonaviy analitik maqolalarda namoyon bo'lishi va manipulyativ atrategiyalar bilan o'zaro aloqasini o'rganish ilmiy yangilik sifatida baholanadi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot qiyosiy- tipologik, tavsifiy va lingvopragmatik tahlil metodlariga asoslanadi.

Tadqiqot materiali: Ingliz va o'zbek tillaridagi yetakchi ommaviy axborot vositalarining(gazetalar, onlayn nashrlar) analitik maqolalari tanlab olindi. Material korpusi "*Xalq so'zi*", "*O'zbekiston ovozi*", "*Yangi O'zbekiston*", "*Ma'rifat*", "*The Guardian*", "*The Daily Telegraph*", "*The Independent*" kabi nashrlardan olingan matnlarni o'z ichiga oladi. Analitik maqolalar informativligi, keng ommaga mo'ljallanganligi hamda obyektiv modallik vositalarining xilma-xil namoyon bo'lish imkoniyatlari bilan tanlab olindi.

Obyektiv modallik vositalari ishtirok etgan tanlab olingan matn parchalarida tizimli ravishda **lingvistik tahlil, pragmatik, qiyosiy hamda diskursiv** strategiyalar tahlili asosida tadqiq qilindi. Bu tadqiqotda yig'ilgan materiallar bevosita lingvistik pragmatika, diskurs tahlili, modallik nazariyasi kabi ilmiy yo'nalishlarning asosiy tamoyillariga tayangan holda tahlilga tortildi.

Muhokama. Maqolaning ushbu bo'limida ingliz va o'zbek mediadiskursida obyektiv modallikning ifodalanish vositalari amaliy misollar asosida tahlil qilinadi.

1.Leksik-grammatik vositalar orqali obyektiv modallikning ifodalanishi.

Tadqiqot davomida shu narsa aniq bo'ldiki, obyektiv modallik har ikki tilda ham bir qator leksik-grammatik vositalar orqali ifodalanadi.

a)Modal fe'llar va ularning ekvivalentlari: Ingliz tilidagi *can, may, might, must, should, will* kabi modal fe'llar(masalan: *"Previous meetings have focused on cuts to greenhouse gases, and meeting scientific goals"*.- bu yerda have focused faktni ifodalaydi) va o'zbek tilidagi *–ishi mumkin, -ish kerak, -moqchi, -ajak, -ar kabi analoglar* ma'lumotning aniqligi, ehtimolligi, zaruriyatini ifodalashda qo'llaniladi. Masalan: *".....qamalib ketishi ham mumkin"* ["Ma'rifat"] jumlasini imkoniyatni obyektiv tarzda ifodalaydi.

b)Modal so'zlar va ravishli birikmalar: Ingliz tilidagi *obviously, clearly, reportedly, allegedly, undoubtedly, certainly, supposedly* kabi so'zlar (masalan: *Yoon's declaration of martial law appears to have been a desperate gamble...*) hamda o'zbek tilidagi *shubhasiz, aniqki, ma'lumki, aftidan, ehtimol, taxminan, aytishlaricha kabi modal ravishlar va kirish birikmalari*(masalan: *"Ma'lumki, bosma nashrlarning ko'pchiligi qiyin sharoitda"* – ["Xabar.uz"] xabarning manbasi, ishonchliligi va obyektiv baho ifodasini aks ettiradi.

c)Kishisiz va passiv konstruksiyalar: Ingliz tilidagi *It is reported that..., It is believed that..., It is known that...* kabi kishisiz konstruksiyalar va *passiv fe'l shakllari(was stated, has been confirmed)* (masalan: *"The agreement has held through more than a year of acute regional tensions...."*). O'zbek tilidagi *aytishlaricha, xabar qilinishicha, ma'lum bo'lishicha kabi konstruksiyalar va majhul nisbatdagi fe'llar(qayd etilishicha, ta'kidlanganidek)* masalan: *"Qayd etilishicha, Ukraina qurolli kuchlarining Kursk oblastidagi amaliyoti rus armiyasida mudofaa kuchlari zaxiralarining yo'qligini ko'rsatib qo'ydi"*-["Xalq so'zi"] bu vositalar muallif pozitsiyasini neytrallashtirish va ma'lumotni umumiy fakt sifatida taqdim etishda muhim rol o'ynaydi.

d) Ko'chirma gaplar va manba ko'rsatkichlari: Ingliz tilidagi *according to, as stated by kabi birikmalar* (masalan: *"... according to data from the Ghana Mining..."*- ["The Guardian"] va o'zbek tilidagi – *ga ko'ra, aytishicha, ma'lumotlariga binoan* kabi konstruksiyalar (masalan: *"Viloyat matbuot va axborot*

boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra.."- *"O'z Milliy axborot agentligi"*). Ushbu vositalar axborotning konkret manbasiga ishora qilib, obyektivlikni ta'minlash mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

2. Obyektivlikning faktiklik, statistik ma'lumotlar va terminlar orqali ifodalanishi.

Analitik maqolalarda obyektivlikning asosiy ko'rinishlaridan biri aniq faktik ma'lumotlar, statistik raqamlar, sanalar va joy nomlarining keltirilishidir.

Masalan, o'zbek tilidagi *"Prezident 2019-yilda "O'zekspomarkaz" da bo'lib xalqaro sanoat yarmarkasida Zangiotadagi "Technologies of real time" korxona mahsulotlari bilan tanishib, zarur ko'rsatmalar bergan edi."* [*"Xalq so'zi"*] parchasi aniq sanalar va joy nomlari orqali faktiklikni ta'minlaydi.

Ingliz tilidagi: *"The previous finance goal, of delivering \$100bn a year by 2020-not met until 2022-was set without real negotiation at the Copenhagen Cop in 2009."* [*"The Guardian"*] parchasi ham aniq raqamlar va yillar bilan obyektivlikni mustahkamlaydi.

Terminlarning qo'llanilishi ayniqsa tahliliy maqolalarda obyektivlikni oshiruvchi muhim vosita hisoblanadi. *"Davlat statistika qo'mitasi, tashqi savdo aylanmasi, eksport, import, manfiy savdo balansi"* kabi terminlar[*"Shirin meva"*] ma'lumotning ilmiy va xolis xarakterini ko'rsatadi. Rus tilshunosi Ye. Nikonovanning fikri ham terminlarning obyektiv modallikni ifodalashdagi salmog'ini tasdiqlaydi.

3.Olmoshlar va shaxssiz gaplar orqali muallif pozitsiyasini neytrallashtirish.

Muallif o'z bahosidan qochish, obyektivlikka erishish maqsadida kishilik *olmoshlari(ular, siz, biz) va egasiz gaplardan* foydalanadi. *"Biz o'z tilimizni shu mehmondek sevyapmizmi? O'zimiz o'z zabonimiz ko'rkiga bo'rk yopmayapmizmi?"* [M.Qo'chqorov, *"Ma'rifat"*] kabi misollarda *"biz"* olmoshidan foydalanish muallifning shaxsiy fikrlarini umumiy mulohaza sifatida taqdim

etishga xizmat qiladi va shu orqali obyektivlikka intilishini ko'rsatadi. *"O'ylaymizki....."*, *"Bilamiz....."*["Xabar.uz"] kabi shaxssiz konstruksiyalar ham muallifning xolis pozitsiyasini ifodalash vositasidir.

4. Obyektivlikni niqoblash strategiyalari.

Mediadiskursda obyektivlikni niqoblash, ya'ni ma'lumotni manipulyativ tarzda, ammo obyektivlik ko'rsatkichlari ostida taqdim etish holatlari ham kuzatiladi. Matnning asosiy qismidan qavs ichida berilgan qo'shimcha, izohlovchi ma'lumotlarning neytral va baholovchi xususiyatlarisiz namoyon bo'lishi obyektiv modallikni yuzaga keltiradi. Masalan, *".....mablag'lari(bo'shagan mablag'larni kasanachilarni moddiy rag'batlantirishga yo'naltirish sharti bilan) ijtimoiy soliqdan ozod qilinishi taklif qilinmoqda"*["Xalq so'zi"]. Bu usul manipulyativ bo'lishi mumkin, chunki qavs ichidagi ma'lumot aniq manba yoki ekspert fikri emas, balki muallifning o'zi tomonidan berilgan izoh bo'lishi ehtimoli bor.

Natijalar. Ingliz va o'zbek mediadisursida obyektiv modallikni ifodalashda o'xshashliklar(masalan, faktik ma'lumotlar, statistik raqamlar, passiv konstruksiyalardan foydalanish) kuzatilsada, ayrim farqlar ham mavjud. O'zbek mediadiskursida, ayniqsa analitik maqolalarda beriladigan qavs ichidagi qo'shimcha, izohlovchi ma'lumotlar orqali obyektivlikni ta'minlash tendensiyasi ko'proq uchraydi. Ingliz tilida esa ko'chirma gaplar va aniq manbalarga havolalar orqali obyektivlikni ta'minlash kengroq qo'llaniladi. Madaniy kontekst ham obyektivlikni talqin qilishda o'ziga xosliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Har ikki tilda ham obyektivlikka intilish umumiy xususiyat bo'lsa-da, uni ifodalash vositalari va strategiyalarida milliy-lingvistik xususiyatlar namoyon bo'lishini ko'rish mumkin.

Xulosa. Ushbu tadqiqot ingliz va o'zbek mediadiskursida obyektiv modallikning murakkab va ko'pqirrali hodisa ekanligini tasdiqladi. Modallik axborotni taqdim etishda hal qiluvchi rol o'ynaydi, u nafaqat faktik ma'lumotlarning

ishonchliligini, balki ularni o'quvchiga qanday yetkazilishini ham belgilaydi. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib shuni xulosa qilishimiz mumkin:

Obyektiv modallik har ikki tilda ham keng tarqalgan lingvistik vositalar-modal fe'llar va ularning ekvivalentlari, modal so'zlar, kishisiz va passiv konstruksiyalar, ko'chirma gaplar va manba ko'rsatkichlari, faktik va statistik ma'lumotlar, terminlar, shaxssiz gaplar va olmoshlar orqali ifodalanadi;

Ingliz va o'zbek mediadiskursida obyektiv modallikni ifodalashda sezilarli o'xshashliklar mavjud bo'lib, bu mediadiskursning umumiy informativ funksiyasi va fktlarga tayanish prinsipining universal ekanligini namoyon qiladi;

Shu bilan birga, har ikki tildagi modallik vositalarining qo'llanilish chastotasi va ularning diskursiv strategiyalardagi o'rni bo'yicha o'ziga xos farqlar ham aniqlandi. O'zbek mediadiskursida qavs ichida berilgan izohlar orqali obyektivlikni ta'minlash, ingliz tilida esa aniq manba ko'rsatkichlari va ekspert fikrlariga havolalar berish ustuvorlik qiladi.

Ushbu qiyosiy tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek mediadisursidagi obyektiv modallikning o'xshashliklari va farqlari, bu farqlarning lingvistik, madaniy va pragmatik omillar bilan bog'liqligi bo'yicha fundamental xulosalar beradi. Tadqiqot jurnalistika, lingvistika va media tahlili sohalarida keying izlanishlar uchun asos bo'lishi mumkin, shuningdek, media savodxonligini oshirish va axborotni tanqidiy qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Андреевна, Н. Е. (2019, Fevral 10). ЖАНР "АНАЛИТИЧЕСКАЯ СТАТЬЯ" (НА ПРИМЕРЕ ТЕКСТОВ АНГЛОЯЗЫЧНОЙ КАЧЕСТВЕННОЙ ПРЕССЫ). Филологические науки. Вопросы теории и практики, 43-46-betlar.
2. Андреевна, Н. Е. (2020). Определение понятия «жанр» (основные подходы, проблемы и перспективы):. Филологические науки. Вопросы теории и практики, 125-133-betlar.

3. Краснова, Т. И. (2002). Субъективность – Модальность (материалы активной грамматики). СПб.: Изд-во СПбГУЭФ.
4. "Uy sharoitida pilla yetishtirganlar daromad solig'idan ozod bo'ladi". (2024, Oktyabr 15). Xalq so'zi, 2-bet.
5. Egamov, N. (2019, Yanvar 15). Yonayotgan gazeta. Qashqadaryo. <https://xs.uz/uz/post/yonayotgan-gazeta>
6. Harvey, F. (2024, Noyabr 25). The \$300bn climate finance pact is likely to be followed by equally bitter battles. The Guardian UK, 4-bet. <https://www.theguardian.com/environment/2024/nov/24/cop29-climate-finance-deal-equally-bitter-battles>
7. Komilov, X. (2024, Sentyabr 18). "Urush, Noming o'chsin jahondan!". Ma'rifat. <https://marifat.uz/show-post/urush-noming-ochsin-jahondan-32>
8. Narziyev, M. (2023, Mart 3). FEVRAL OYIDA MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT TAHLILI. Shirin meva internet sayti
9. Qo'chqorov, M. (2024, Oktyabr 23). "Mutribo-bir iltimosim, o'zbekona kuylagin". Ma'rifat. <https://marifat.uz/show-post/mutribo-bir-iltimosim-%E2%80%93-ozbekona-kuylagin-36>
10. Shokirov, Q. (2023, Yanvar 16). Singapur O'zbekiston Prezidentining davlat tashrifini katta qiziqish bilan kutmoqda. Xalq so'zi online. <https://xs.uz/uz/post/singapur-ozbekiston-prezidentining-davlat-tashrifini-katta-qiziqish-bilan-kutmoqda-elchi-qahramon-shokirov>
11. Sulaymonov, A. (2024, Mart 20). Gazeta o'qimay qo'ydik. O'zbekiston milliy agentligi internet sayti. https://uza.uz/oz/posts/gazeta-oqimay-qoydik_581391
12. Sultonova, B. (2023, Fevral 13). "Shuncha bo'lurmi hay-hay" yoxud gazetalardagi tanqidga munosabat yo'q. Xabar.uz. <https://xabar.uz/uz/jamiyat/shuncha-bolarmu-hay-hay>

13. The Guardian. (2024, Dekabr 4). Yoon's declaration of martial law appears to have been a desperate gamble in the face of rock-bottom public popularity. <https://www.theguardian.com/world/2024/dec/03/declaration-of-martial-law-awakens-ghosts-south-koreans-thought-were-laid-to-rest>

14. The Guardian. (2024, Noyabr 25). More than 2,000 artisanal mining licences repository were issued between 2017 and 2021. <https://www.theguardian.com/world/2024/nov/25/polluted-rivers-taxes-ghana-illegal-gold-mining-boom#:~:text=More%20than%20%2C000%20artisanal%20mining,linked%20to%20ruling%20party%20members>

15. The Guardian. (2024, Noyabr 25). Negotiating on money has never been a Cop issue. <https://www.theguardian.com/environment/2024/nov/24/cop29-climate-finance-deal-equally-bitter-battles>

16. The Guardian. (2024, Noyabr 25). The UAE normalized relations with Israel in 2020 alongside Bahrain and Morocco.

17. Xidirova, B. (2024, Noyabr 5). Radarlar qayd etgan qoidabuzarlik uchun 48 soatlik muddat. Yangi O'zbekiston, 4-bet.

18. Xalq so'zi. (2023, Yanvar 16). So'nggi yillar mobaynida mamlakatimizda hayotga tadbiq etilayotgan, tashqi iqtisodiy siyosatni yanada liberallashtirish....

19. Xalq so'zi. (2024, Oktyabr 11). "Yangi qonunlar mohiyati tushuntirildi". 2-bet.

20. Xalq so'zi. (2024, Oktyabr 12). Korrupsiyaning oldini olishda mahalliy kengashlarning vakolatlari. 2-bet.